

SUV ISTE'MOLI UCHUN IQTISODIY SAMARADOR QURILMA

Majidov Nurmuxamad Najmitdinovich

katta o'qituvchi, Namangan muhandislik-qurilish instituti

Qayumov Dilshod Abdug'ofur o'g'li

o'qituvchi, Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dehqonov Boburshoh Mahmudjon o'g'li

Talaba, Namangan muhandislik-qurilish instituti

Annotatsiya

Maqlada hozirgi ichimlik suvi tanqisligi davrida toza ichimlik suvi zaxiralaridan tejamli va oqilona foydalanish zarurligi va uning amaliy ahamiyati tahlil etilgan. Toza ichimlik suvidan samarali va tejamkor foydalanish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan oddiy qurilma va unda tejalishi mumkin bo'lgan ichimlik suvining iqtisodiy samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: suv, yer osti suvlari, suv manbalar, chuchuk ichimlik suv, iqtisodiy samaradorlik.

Suv eng aziz ne'mat xisoblanib tabiat boyliklarorasida alohida o'rinn tutadi. Chunki suv, barcha tirik jonzotlar hayotining asosiy manbaidir. Garchi yer sharining 3/4 qismi, yani 71 foizi suv bilan qoplangan bo'lsa ham chuchuk suv, miqdorining 2 foizga yaqinini tashkil etadi. Avvalambor, yer yuzida hayot davom etishi uchun suvni, yerdagi suv manbalarini, ayniqsa chuchuk ichimlik suvlari zahiralarini ehtiyoj qilishimiz, ularni ifloslantirishga yo'l qo'ymasdan, oqilona foydalanishimiz lozim.

8 milyard aholining 1,5 millardi toza ichimlik suviga muhtoj, 2,4 milliard aholi esa sanitar talab darajasiga mutlaqo javob bermaydigan suvni iste'mol qilishga majbur bo'lmoqda. Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida suv yetishmasligi doimiy jarayonga aylangan. Bundan tashqari, hozirgi vaqtida jahon aholisining har 10 tadan 4 tasi ichimlik suvi yetishmaydigan joylarda yashashga majbur bo'lib, bunday holat 2025 yilda kelib, har 10 odamdan 6 tasi yoki 5,5 milliard aholi toza ichimlik suvi tanqisligiga uchrash ehtimoli bor.

Kelgusida Respublikamizda shunday ayanchli muammolarga duch kelmaslik maqsadida, yer usti va yer osti chuchuk ichimlik suv zahiralarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish borasida O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi sa'yi harakati bilan bir muncha ishlar olib borilmoqda, Jumladan, yer osti suvlari hosil bo'ladigan zonalarga alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maqomini berish va suvni muhofaza zonasini va qirg'oqbo'yi polosasini, transchegaraviy daryolar bo'l mish Amudaryo va Sirdaryolarning


respublika hududidan oqib o'tuvchi qismlariga suvni muhofaza qilish mintaqalari va qirg'oq bo'yi polosalari belgilash to'g'risida Hukumat qarorlari qabul qilinib, ulardan tegishli vazirliklar, qo'mitalar mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, shuningdek, korxona va tashkilotlar bajarilishlari lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasining yer osti suvlari umumiy resurslarining ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiyotning rivojlanishida, shaharlar va qishloqlar aholisining xo'jalik- ichimlik suvi ta'minoti, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining asosiy suv ta'minoti manbasi xisoblanadi.

Suv resurslarini chegaralanganligini inobatga olib, suvdan samarali foydalanish va joylarda tuzilayotgan suvdan foydalanuvchi uyushma (SFU)lari faoliyatini yanada jlonlantirish, ulardan unumli foydalanish, suv o'ta tanqis bo'lgan yillarda sug'orma suvlarga minerallashgan zovur suvlarini zarur nisbatda aralashtirgan holda hamda tashlama suvleri bilan qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda ishlatishdek uslub, kelajakda keng qo'llanilishini hozirda vujudga kelgan vaziyat taqazo etmoqda.

Ichimlik suvidan oqilona va tejamli foydalanish borasida viloyatimizda ham ma'lum ishlar olib borilmoqda. Ichimlik suvidan keng foydalanuvchi yashash binolari, talaba va o'quvchilar istiqomat qiladigan yotoqxonalarda ham suvdan tejamli foydalanish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Viloyatimizda 3 ta oliy o'quv yurti bo'lib, ushbu oliy o'quv yurtlari talabalar turar joylari yotoqxonalarida yashaydilar. Talabalardan 960 nafari Namangan Davlat universiteti, 560 nafari Namangan muhandislik-qurilish instituti, 150 nafari Namangan muhandislik texnologiya instituti talabalar yotoqxonalarida istiqomat qiladilar. Ushbu yotoqxonalarda talabalarning suvdan tejamli foydalanishlarini ta'minlash maqsadida Namangan muhandislik-qurilish institutining talabalar turar joyida, suvdan tejamkor foydalanish maqsadida qo'llash uchun taklif etilayotgan qurilmadan foydalangan xolda tajriba o'tkazildi. Tajriba o'tkazishda talabalar avval suvdan an'anaviy tarzda foydalandilar. So'ngra suvdan taklif etilgan qurilma yordamida foydalandilar. Har ikki holatda ishlatilgan suvlar miqdori o'lchandi va bir-biri bilan solishtirildi.

Namangan muhandislik-qurilish instituti talabalar turar joyida toza ichimlik suvi tejash bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijasi.

T/r	Taklif qilingan qurilma orqali		An'anaviy tarzda		Tejalgan suv (litrda)
1	Yuz yuvish(oddiiy holatda)	0,5	Yuz yuvish(oddiiy holatda)	4	3,5
2	Yuz yuvish(tish pastasi ishlatilgan holatda)	1	Yuz yuvish(tish pastasi ishlatilgan holatda)	5,5	4,5
3	Yuz yuvish(kompleks)	2	Yuz yuvish(kompleks)	11	9,5



Hisob qilingan natijalar asosida HamMQI talabalar turar joyida bir kunda $5,32 \text{ m}^3$ suvni tejash mumkin. Tejalgan suvning narxi 13910 so'mni tashkil etadi. Bir yilda tejalgan suv narxi 4173000 so'm. Shunday xisob NamDU bo'yicha bir kunda $9,12 \text{ m}^3$ suvni tejash mumkin. Tejalgan suvning narxi 13910 so'mni tashkil etadi. Bir yilda 7113600 so'mni, NamMTI bo'yicha bir kunda $1,425 \text{ m}^3$ suvni tejash mumkin. Tejalgan suvning narxi 3705 so'mni tashkil etadi. Bir yilda 1111500 so'mni. Xulosa qilib oliy o'quv yurtlari talabalar yotoqxonalarida bir yilda taxminan $441,94 \text{ m}^3$ ya'ni 1111514,44 so'mlik suvni tejash mumkin.

Taklif etilayotgan qurilmadan foydalanilganda bir kunda tejalishi mumkin bo'lган suv (litr) miqdori va uning iqtisodiy samaradorlik miqdori (so'mlarda)

№	Oliy ta'lim muassasasi	Joylashgan talabalar soni	Tejalgan suv miqdori	Tejaladigan summa
1	NamMQI	560	5320	13832
2	NamDU	960	9120	23712
3	NamMTI	150	1425	3750

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muradov Sh.O ., Valiyev X .I., Xolbayev B.M. Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish. - T., «Aloqachi», 2007, 160 bet.
2. Barayev F.A., Serikbayev B.S., Bazargov R.X, G'ulomov S.B., O'rribayev S.N., Shaymanov N.O., Mamasoliyev A.B. Suv resurslari va suvdan tejamlı foydalanish o'quv qo'llanma Toshkent – 2014, 134 bet.
3. Ушаков Е.П. и др. Водные ресурсы: рациональное использование.-М : Экономика, 1987
4. Чўлпонов О., Каюмов Д., Усманов Т. Марказдан қочма икки томонлама “Д” турдаги насосларни абразив емирилиши ва уларни камайтириш усули //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 304-311.
5. Мажидов Н. Н., Жўраев Х. А., Тошпулатов Д. С. ВОПРОСЫ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД ОТ ЖИРОВ И МАСЕЛ //Science Time. – 2018. – №. 2 (50). – С. 65-67.
6. Мажидов Н. Н., Атамов А. А., Косимов Т. О. НАПОЛЬНОЕ ОТОПЛЕНИЕ (ГОРЯЧИЙ ПОЛ) //Академическая публицистика. – 2021. – №. 4. – С. 109-115.
7. Алиназаров А. Х., Каюмов Д., Дадамирзаев О. ОПТИМИЗАЦИИ РЕЖИМОВ ГЕЛИОТЕПЛОХИМИЧЕСКОЙ ОБРАБОТКИ ЗОЛОЦЕМЕНТНЫХ КОМПОЗИЦИЙ //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 133-138.